

## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KIMYO DARSLARINI TASHKIL ETISH STRATEGIYASI

*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 23-umumi o'rta ta'lim maktabi*

*Oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi*

***Aliyeva Nilufar Akromqulovna***

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy texnologiyalar asosida kimyo darslarini tashkil etish strategiyasi orqali kimyo fanini o'qitish borasida ma'lumot, fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** maktabda o'quvchilarni kimyo fanidan zamonaviy texnologiyalar orqali tarbiyalashning ahamiyati hamda samarasini ko'rsatib berish.

**Usullar:** "Tasvirli multimedia", "Sehrli siyohlar", "Sehrli siyohlar", "Kim ko'p yozadi", "Tafovut"...

**Natija:** O'quvchilarning kimyo fanidan savodxonligini oshirish, ularning ushbu fan bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

**Kalit so'zlar:** ta'lim metodlari, kimyo, noan'anaviy usullar, strategiya, tasavvur, atom tuzilishi, tasvirli multimedia, imkoniyat...

**The strategy of organizing chemistry lessons based on modern technologies**

Karshi District, Kashkadarya Region

23rd general secondary school

Senior chemistry teacher, Excellent public education

***Aliyeva Nilufar Akromkulovna***

**Abstract:** This scientific article presents information, opinions and comments on the teaching of chemistry through the strategy of organizing chemistry lessons based on modern technologies.

**The purpose of writing this article** is to show the importance and effectiveness of educating students in chemistry at school through modern technologies.

**Methods:** "Image multimedia", "Magic inks", "Magic inks", "Who writes the most", "Difference"...

**Result:** Improving students' chemistry literacy, developing their knowledge in this subject.

**Key words:** educational methods, chemistry, non-traditional methods, strategy, imagination, atomic structure, visual multimedia, possibility..

### **Стратегия организации уроков химии на основе современных технологий**

Каршинский район, Кашкадарьинская область

23-я общеобразовательная школа

Старший учитель химии,

Отличное государственное образование

**Алиева Нилуфар Акромкулова**

**Аннотация:** В данной научной статье представлены информация, мнения и комментарии по преподаванию химии посредством стратегии организации уроков химии на основе современных технологий.

Цель написания данной статьи – показать важность и эффективность обучения школьников химии в школе посредством современных технологий.

**Методы:** «Мультимедийное изображение», «Волшебные чернила», «Волшебные чернила», «Кто больше пишет», «Разница»...


**Результат:** Повышение химической грамотности учащихся, развитие их знаний по данному предмету.

**Ключевые слова:** методы обучения, химия, нетрадиционные методы, стратегия, воображение, атомная структура, визуальные мультимедиа, возможность...

Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘rganish jarayonida noan’anaviy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta

olishiga, darslik, qo'shimcha ta'lim vositalaridan mustaqil bilim olishlariga yordam beradi. Bu o'rinda fan o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi va to'liq qondirishi, ta'limning tashkiliy shakllarini tanlashidir. Zamonaviy texnologiyalar asosida kimyo darslarini tashkil etish strategiyasi yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqt bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi.<sup>1</sup> Zamonaviy metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi hamda e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Quyida ana shunday usullardan bir nechtasini keltirishni joiz topdim.

**"Tasvirli multimedia" usuli.** Bunda o'quvchi tasavvur qilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar tasvir (rasm) orqali tushuntiriladi. Masalan, Atom tuzilishi, Atom yadrosi tarkibi, elektronlarning energetik pog'onalarda taqsimlanishi, gibridlanish, kimyoviy bog'lanish turlari kabi mavzularda, o'qituvchi tushuntirayotgan ma'lumotlarni o'quvchi faraz qilishi orqali o'rganishi mumkin bo'ladi. Ko'pchilik o'quvchilar og'zaki ma'lumotlarni tushunishlari qiyinroq kechadi. Ana shunday jarayonlarda tasvirli (rasmli) yoki animatsion roliklar kabi multimedia ilovalaridan qo'llash darsni ko'rgazmali qilish bilan birga, ma'lumotlar o'quvchilar ongiga chuqr singishiga ko'makchi bo'ladi.



1. A.Mavlyanov va boshqalar “Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish”  
Toshkent. 2018-yil, 35-bet.

**“Sehrli siyohlar” metodi.** Bunda o‘qituvchi mavzu nomini yoki biron-bir tushunchani oq qog‘ozga fenolftalein eritmasidan foydalanib yoziladi. Yozuv bir oz ochiq havoda quritiladi. Qog‘ozda hech qanday yozuv ko‘rinmaydi. Chunki fenolftalein eritmasi rangsiz. Qog‘ozni yozuv taxtasiga ilib qo‘yish mumkin. Qog‘ozga “Mavzu: Asoslarning olinishi va ishlatilishi” deb yozish mumkin. Suv purkagich idishga natriy gidroksid eritmasi avvaldan quyib qo‘yiladi. U ham rangsiz. Eritmani qog‘ozga purkaladi. Oppoq qog‘ozda to‘q pushti rangli yozuv “Mavzu: Asoslarning olinishi va xossalari” paydo bo‘ladi. Ushbu metoddan barcha sinflarga kimyo darsini o‘tishda, 7-, 8-sinflarda asoslarga oid mavzularni o‘tishda, indikatorlar haqida ma’lumot berilganda foydalanish mumkin. Ushbu metoddan foydalanib o‘quvchilarni hayratini, fanga bo‘lgan qiziqishini, intilishini oshirish, kimyonni mo‘jizakor ekanini ko‘rsatish, o‘quvchilar fikrini darsga qarata olish, mavzuga doir amaliy bilim bera olish mumkin. Bu esa kimyo darslarida mavzularni to‘la tushunishlariga yordam beradi.



### **“Kim ko‘p yozadi” metodi.**

Metodni o‘tkazish tartibi: o‘quvchilar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. Metodni «Aromatik aminlar», «Aminokislotalar», «Oqsillar» mavzusi bo‘yicha o‘tkazish ayniqsa yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, «Aminokislotalar» mavzusi e’lon qilinadi deylik, o‘quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha aminokislotalarni yozib chiqadilar.

Yozilgan har bir aminokislota uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. Metodda eng ko‘p kartochka to‘plagan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi.

### **“Tafovut” metodi.**

**Maqsad:** o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

**Mashqning borishi:** Olib boruvchi tomonidan o‘quvchilarga ikkita rasm ko‘rsatilib, ular o‘rtasidagi farq va o‘xshashlikni topishlari so‘raladi.

Masalan: Suv va H<sub>2</sub>O bunga oid rasm ko‘rsatiladi.

Zamonaviy usullardan foydalangan tarzda, turli xil didaktik o‘yinlardan foydalanib dars o‘tish, o‘quvchilarda kimyo faniga mehr, qiziqish uyg‘otadi. Chunki bu usullar juda qiziqarli bo‘lib o‘quvchilarning ishtiyoq bilan kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirib olishlariga, fikrlash doirasining kengayishi va bilimlarini mustahkamlashga olib kelmoqda. Bu usullar o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi, mavzuni to‘liq yoritadi, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorlanadi va bajaradi, guruhlarda va yakka holda ishlashni tashkil qiladi, mavzu yuzasidan asosiy tushuncha va xossalarni yetkazadi, o‘quvchilar bergan savollariga javob bera oladi, oqilona baholaydi hamda maqsadga erishadi. Xullas, umumiy o‘rta ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limning sifatli bo‘lishida, yangi pedagogik texnologiyalari ya’ni multimedia ilovalarining o‘rni katta. Bu esa ta’lim islohatlaridagi yosh avlodning bilimli, faol, mustaqil va erkin fikr yurita oladigan, ongli intizomga ega bo‘lgan, jamiyat talablariga javob bera oladigan shaxs bo‘lib kamol topishini ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.I. R. Asqarov, N. X. To‘xtaboyev, K. G‘. G‘opirov - Kimyo 7-sinf darsligi.  
: Toshkent-2013-yil.

2. A.Mavlyanov va boshqalar “Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish”  
Toshkent. 2018-y.

3. Raxmatullaev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh. M. —Kimyo o‘qitish metodikasi T.: —Iqtisod moliya. 2013-yil.